

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda
PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

1-son (yanvar 2024)

**Ilmiy-nazariy, metodik jurnal
2001-yildan nashr qilina boshlagan**

Urganch – 2024

Axatov Lutfillo Karamatilloevich (Chirchiq davlat Pedagogika universiteti dotsenti)

FALSAFIY-AXLOQIY QARASHLAR ZAMIRIDA TASAVVUFNING SHAKLLANISHI

Annotatsiya. Globallashuv davrida falsafiy-axloqiy qarashlar muhim substansional ahamiyatga ega. Shuning uchun falsafiy-axloqiy qarashlar mohiyati tasavvufiy qarashlar yordamida tahlil qilindi. Tasavvufning rivojlanishi soʻfiylar axloqi va falsafiy mushohada irratsional yondashuv asosida tatbiq qilindi. Bunda axloqiy qarashlarni anglash uchun tasavvuf va soʻfiylarga ilmiy yondashuvlar misolida qaraldi.

Kalit soʻzlar: axloq, tasavvuf, soʻfiy, ilm, irfon, adabiyot, falsafa, tarix.

Аннотация. Философско-моральные (этические) взгляды имеют важное содержательное значение в период глобализации. Поэтому сущность философско-этических взглядов анализировалась с помощью мистических воззрений. Философское осмысление суфийской этики развивалось на иррациональном подходе. Для понимания этических воззрений был рассмотрен пример научных подходов к суфизму и суфиям.

Ключевые слова: этика, суфизм, суфий, наука, ирфан, литература, философия, история.

Annotation. Philosophical and moral (ethical) views have important content in the period of globalization. Therefore, the essence of philosophical and ethical views was analyzed with the help of mystical views. The development of Sufism is based on an irrational approach to the philosophical understanding of Sufi ethics. To understand ethical views, an example of scientific approaches to Sufism and Sufis was considered.

Key words: ethics, Taşawwuf, Sufi, science, Irfan, literature, philosophy, story.

Substansional asos vazifasini oʻtovchi omillarni anglash uchun esa keyinchalik, «soʻfiylik» deb nomlangan harakat vujudga kelgan. Dastlabki paytlarda ushbu harakat vakillariga nisbatan soʻfiy soʻzi qoʻllanilmagan. Oʻsha davrda bu dunyoning mol-dunyosi va lazzatlaridan voz kechib, oʻzini Allohga ibodat qilishga bagʻishlagan kishilarga nisbatan obid (ibodat qiluvchi), nosik (taqvodor) va zohid (tiyiluvchi) soʻzlari qoʻllanilgan¹ligi haqidagi fikrlar ham mavjudligini unutmaslik lozim.

Tarixan har qaysi davrning oʻziga xos ratsional va irratsional tafakkur tarzi sifatida tasavvufning yuksalgan davrlari ifodalanadi. Tasavvuf bu mukammalik kasb etuvchi tariqat – yoʻlining tadrijiy ifodasi boʻlsa, unga ergashganlar soʻfiylar tarzida mashhur boʻlganlar. Bunday ilmlarning (falsafiy-axloqiy qarashlarning L.Axatov) keng omma nazdida rivojlantirish uchun muhim “anʼanaviy” jarayon borki, u ham boʻlsa, «Ustoz-shogird» munosabati va u orqali ilmning yuksalish bosqichlarini belgilash sanaladi. Bunda «Ustoz-shogird» oʻrtasidagi munosabatlar juda nozik va latif koʻrinishda kechadi. Islom eʼtiqodida «Nafs va unga bogʻliq munosabat»lar qanchalik muhim sanalsa, «Ustoz-shogird» munosabatida ham bunga alohida eʼtibor qaratiladi.

Ilm ixtiyor qiluvchi – shogird (mutaallim)ning odoblari alohida inobatga olinadi.

Birinchidan, shogird (mutaallim) maqomida boʻluvchi shaxs nafs halolligi (pokligi)ni yomon sifatlardan ustun qoʻyishi va axloqsizliklardan mosuvo boʻlishi lozim qilingan. Zero, oʻrganiladigan ilm qalb ibodati hisoblanadi.

Ikkinchidan, shogird (mutaallim) maqomida boʻluvchi shaxs behuda narsalar–chalgʻituvchi narsalar bilan munosabat-aloqani uzishi lozim. Sabab, xayol-fikr boʻlinadigan boʻlsa, asliyat-haqiqatlarni bilish–idrok qilishdan ojiz holatda tushadi.

Uchinchidan, shogird (mutaallim) maqomida boʻluvchi shaxs goʻyo bemorning tabibga borib, oʻzini uning (tabibning) ixtiyoriga topshirgani kabi, u shogird (mutaallim) ham ustoziga (ilm oʻrgatuvchi-murshidga) butkul boʻysunishi, ustoziga tavozeda boʻlishi va uning xizmatida qoim holatda boʻlmogʻi lozim. Tabib oʻzidagi tabobat ilmidagi imkoniyatlari orqali bemorni davolagani kabi, ustoz (ilm oʻrgatuvchi-murshid) ham ilm yoʻlidagi imkoniyatlari orqali shogird (mutaallim)ni manfaatdor qiladi.

Toʻrtinchidan, shogird (mutaallim) maqomida boʻluvchi shaxs dimogʻdorlik-takabburlik qiluvchi boʻlsa, johillik yoʻlida boʻladi. Sabab, maqsad-hikmat uning (moʻminning) izlab yurgan narsasi sanaladi.

¹ Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. М., “Наука”, 1965, с. 16; Кныш А.Д. Ат-Тасаввuf. Ислам. Энциклопедический словарь, с. 225; Камиль Йылмаз Хасан. Тасаввuf и тарикаты. М., ООО Издательская группа САД, 2007, с. 17; Насыров И.Р. Ильшат Рашитович. Основания исламского мистицизма (генезис и эволюция). М., Языки славянских культур, 2009, с. 24 – 34.

Izlaganini qachon-qayerdan topsa, ega chiqadi-oladi. Shogird (mutaallim), ustozining (ilm o'rgatuvchi-murshidining) yo'li-fikriga ergashmog'i lozimligi aytiladi.¹

Ilm ixtiyor qiluvchi – shogird (mutaallim)ning odoblari bo'lgani kabi, ilm o'rgatuvchi ustoz (murshid)ning ham odoblari mavjud.

Birinchidan, ilm ixtiyor qiluvchi – shogirdlariga shafqatli bo'lishi va ularni o'z bolalari o'rnida ko'rishi lozim.

Ikkinchidan, ilm ixtiyor qiluvchi shogirdlarga ta'lim bergani uchun haq olmasligi, mukofot va ta-shakkur tama qilmasligi, yolg'iz Alloh taoloning roziligi uchun ilm-ta'lim berishi lozim.

Uchinchidan, shogird (mutaallim) maqomida bo'luvchi shaxsga minnat qilmasligi, aksincha, shogirdlar (mutaallimlar)ning ilm yo'lida qilgan himmatlarini fazl deb hisoblashi kerak. Ajrini Alloh taolodan boshqadan so'ramasligi kerak. Shogir (mutaallim)da odobsizlikni ko'radigan bo'lsa, ishora orqali va lutf ila isloh qilsin. Sabab, do'q-po'pisa haybat pardasini yirtadi, deb aytiladi.

To'rtinchidan, shogird (mutaallim) maqomida bo'luvchi shaxsning fahmi va aqli salmog'ida nazoratga olsin. Unga fahmi yetmaydigan va aqli egallay olmaydigan narsalarni ta'lim bermasligi lozim.

Imom Muslim "Sahih"da Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhunging: "Bir qavm ularning aqllari yetmaydigan gapni zinhor gapirmagin. Chunki ba'zilar uchun fitnaga aylanib qolishi mumkin",² deb aytilgan.

Beshinchidan, ilm o'rgatuvchi ustoz (murshid) – muallim ilmga amal qiluvchi bo'lishi shart.

Alloh taolo: «Odamlarni yaxshilikka chorlab turib, o'zingizni unutasizmi? Holbuki, kitobni tilovat qilyapsiz-ku. Aqlni ishlatmaysizmi?!» degan («Baqara» surasi, 44-oyat).³

Ushbu oyat, umumiy qoida sanalib, hammaga tegishli ekanligi aytilgan.

...Aytganiga amal qilish, aqiydaga muvofiq, yurib-turish oson ish emas. Buning uchun sabr-matонат, tirishqoqlik kerak.⁴

Bunday mushtaraklik fors-tojik klassik adabiyotining merosi sanalgan Firdavsiy, Ro'dakiy, Hayyom, Hofiz, Shayx Sa'diy, Mavlono Jomiy kabi donishmandlarning ilmiy meroslari bir necha yillar mobaynida butun Markaziy Osiyo xalqlari uchun ma'lum ma'noda umumiy sanalganligini olishimiz mumkin.

Jomiy ijodi, xususan, «Hamsa» («Haft avrang») asari XVI–XVIII asrlardagi barcha fors-tojik va turkiy badiiy adabiyoti bilan birga ijtimoiy fikrlarining rivoji uchun ham juda katta ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, bu davrlarda yashab ijod qilgan Turk, Ozarbayjon o'lkalaridagi, Afg'oniston (Hirot) va sharqiy Eron-dagi shoir-donishmandlar Jomiy ma'naviy xazinasidan ilhomlanganlar va bahramand bo'lganlar hamda undan bu («Xamsa»)chilik borada o'rgandilar. Mintaqalararo bunday ijtimoiy madaniyatning o'zaro ta'siri ostida xalqlar ijtimoiy milliy madaniyatining o'sishi va boyib borishiga olib kelgan.

Ma'lumki, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Firdavsiy, Ro'dakiy, Hayyom, Hofiz, Rumiy, Shayx Sa'diy, Abdurahmon Jomiy va boshqalar Sharq va G'arb mintaqalari o'rtasida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy aloqalarning ortib borishi, intensivlashuv, ko'psonli xalqlar madaniyatlarining o'zaro integratsiyalashuvi uchun asosiy ma'lumotlar bazisini o'tab, mintqa xalqlari ilmiy ijodlaridagi harakatlari-ga katta turtki berganlar. Bunday ilmiy yuksalishlar davrlarida Markaziy Osiyo ilmiy madaniyatida Eron, Arab davlatlari, Zakavkazye, Vizantiya, qadimgi Gretsiya, Xitoy, Hindiston kabi mamlakatlarining qadimgi madaniyati ta'siri va ularning boshqa mintqa xalqlari madaniy-ma'naviy hayot tarziga ta'sirlarini ko'rishimiz mumkin.

Irfon ilmi va ravnaqi uchun Abu Rayhon Beruniy talqinicha, so'fizm (irfon ilmi targ'ibotchisi) yunon tilidan donishmand degan iboradan shakllantirilgan, deb e'tirof etadi. Irfon ilmining substansional voqiyiligi – tasavvuf ilmi shimoli-g'arbiy Afrika mintaqasi-o'lkasidan to Hindiston mintaqasigacha hamda Sharqiy Turkiston o'lkasigacha tarqalgandi.

Bunday talqinlar falsafiy-irfoniy qarashlarning shakllanishi va rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilganligining namunasi sanaladi.

Ba'zan, «ilm davrga moslashtirilgan» holda talqin etilgan. Ba'zan, aksincha, «ilm orqali davrni tanqid qilish» holatlari ham bo'lgan. Jomiy asarlarida jamiyatdagi ba'zi «amaldor»lar tanqid ostiga olinganligi

¹ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Рухий тарбия. 1-жуз. Покланиш. Т., "Sharq", 2010, 41–42-бетлар.

² Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Рухий тарбия. 1-жуз. Покланиш. Т., "Sharq", 2010, 44-бет.

³ Shu manba.

⁴ Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири Хилол. Олти жуз томли (тузатилган ва тўлдирилган қай-та нашр). 1-жуз, Тошкент, "Hilol-nashr", 2016, 41 – 43-бетлар.

ham bir asos. Kibr-xasislikni kasb etganlar qoralanadi. Xoh podshoh, xoh sarkarda va yoki boshqa bir rahbar bo'lishidan qat'i nazar, insoniy fazilatlariga zid xatti-harakatlarga yo'l qo'rganlar tanqid ostiga olingan.

Jamiyatda to'liqlanib turadigan ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar (ilm yo'lida) sodir bo'lib turar ekan, o'tmishga nazar solgan holda, kelajakgi pragnoz qilish bu odatiy holdek e'tirof etiladi. Ilmiy munozaralar va ularning birligini saqlash uchun falsafiy-irfoniy qarashlarning mohiyati va uning maqsadini bilish uchun ilm istagan inson ham falsafa ilmidan va ham diniy ilmdan boxabar bo'lmog'i lozim.

Falsafiy-irfoniy qarashlarning vujudga kelishligiga ham o'ziga xos omillar sabab bo'lgan.

Ilm yo'lini tanlagan tadqiqotchi olim, aslida, bo'linishlarga (dunyoviy yoki diniy ilm kabilarga) yo'l qo'ymasligi kerak. Tadqiqotchilarning ba'zi tadqiqotlari orqali irfon-tasavvuf ilmining shakllanishiga bir necha sabablar va turli xil qarashlarni keltirilgan.¹

"E'tiqodiy-diniy omilning sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy omillarning sababi, ijtimoiy-siyosiy omillar sababi, g'oyaviy-aqidaviy omillar sabablari shular jumlasidan".²

Mutasavvufklar tomonidan qoldirilgan "Tazkira"lar, tasavvufiy qarashlar yordamida falsafiy-axloqiy qarashlarni keyingi bosqichga olib chiqishga zamin yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- (1). Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. М., "Наука", 1965, с. 16.
- (2). Кныш А.Д. Ат-Тасаввуф. Ислам. Энциклопедический словарь. С. 225.
- (3). Камилъ Йылмаз Хасан. Тасаввуф и тарикаты. М., ООО Издательская группа САД, 2007, с. 17.
- (4). Насыров И.Р. Ильшат Рашитович. Основания исламского мистицизма (генезис и эволюция). М., Языки славянских культур, 2009, с. 24 – 34.
- (5). Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Рухий тарбия. 1-жуз. Покланиш. Тошкент, "Sharq", 2010.
- (6). Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири Хилол. Олти жуз томли (тузатилган ва тўлдирилган қайта нашр), 1-жуз, Тошкент, "Hilol-nashr", 2016.
- (7). Прозоров С.М. Ислам как идеологическая система. 2 т, РАН, Инст. Восточных рукописей, "Наука", Москва, 2016.
- (8). Akhatov Lutfillo Karamatilloevich Tolerance and Islamic mysticism in the works of Jami. Novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer ISS NR eNvoie: wed Journal VOLUME 6, ISSUE 5 2, 5M8a1y – 24203200, p. 293 – 296.
- (9). Akhatov Lutfillo, Madalimov, Timur and Xaytmetov Raimberdi. "The Spiritual Connection of Sufism and Tolerance in the Works of Jami." International Journal of Multidisciplinary Research and Publications (IJMRAP), Volume 2, Issue 11, pp. 1 – 4, 2020.
- (10). Раҳимов К. Мовароуннахр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII–XI асрлар). Тошкент, Akademnashr, 2020.

Norkulov Olim Nasimovich (SamDCHTI "Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari" kafedrası tadqiqotchisi; olim.00@gmail.com)

**JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida
MIGRATSIYA IJTIMOY-FALSAFIY HODISA SIFATIDA**

Annotatsiya. Mazkur maqolada migratsiyaning inson hayotida tutgan o'rni, uning rivojlanib borish tendensiyalari, davlatlar hayotidagi ijtimoiy va madaniy jihatlar falsafiy qarashlar asosida ilmiy tadqiq etilgan. Shuningdek, migratsiyaning ijtimoiy-falsafiy jarayonligi, migrantlarning yashash joyi, davlatning o'z infratuzilmasiga moslashishi, ularning mezbон jamiyatga tez yoki aksincha, sekin kirib borish imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: inson, davlat, migratsiya, til, muloqot, migrant, an'ana, etnik tarkib, huquq, madaniyat, integratsiya, qadriyat, globallashuv, strategiya.

МИГРАЦИЯ КАК СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ ФЕНОМЕН

Аннотация. В данной статье на основе философских взглядов научно исследуются роль миграции в жизни человека, тенденции ее развития, социальные и культурные аспекты в жизни государств. Также описываются сведения о социально-философском процессе миграции, месте проживания мигрантов, адаптации государства к его инфраструктуре, возможностях их быстрого или, наоборот, медленного проникновения в принимающее общество.

¹ Прозоров С.М. Ислам как идеологическая система. 2 т, РАН. Инст. Восточных рукописей. "Наука", Москва, 2016, с. 134.

² Раҳимов К. Мовароуннахр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII–XI асрлар). Тошкент, Akademnashr, 2020, с. 17–19.

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA

Quromboyev Hamdambek Nuraddinovich, Raxmonov O'ktam Sodiqovich. Birinchi tip matritsaviy Zigel sohasi uchun Karleman formulasi	3
Qurbanov Davron Shavkatovich, Raximboyev Ravshanbek Rustamovich, Yakubov Komlijon Ruzmetovich, Karajanov Smagul Jangaberganovich. Sb ₂ Se ₃ /Si yupqa quyosh elementlarining samaradorligini α -Al ₂ O ₃ qoplamasi yordamida oshirish.....	7
Худжакулов Садулла Мирзаевич, Эргашев Шахриёр Хамудиллаевич, Нетьматов Иномджон Лукман угли, Хайридинов Батыр Эгамбердиевич. Модель теплового баланса гелиотеплицы-сушилки с водяным аккумулятором тепла.....	10
Хасанов Акназар Бекдурдиевич, Собиров Шехзод Кучкарбой угли. Решение задачи коши для системы нагруженных нелинейных интегро-дифференциальных уравнений в классе быстроубывающих функций.....	13
Xasanov Muzaffar Masharipovich, Ganjayeov Otabek Yuldashovich. Travelling Wave Solutions for the Loaded Burgers Equation with Variable Coefficients Using the Generalized (G'/G) - Expansion Method.....	24
Saidov Kamoladdin. Ikki o'lchovli (2D) o'tish metall dikalkogenid materiallarining ko'p qatlamlarini o'rganish va AKM xarakteristikasi.....	29

FALSAFA

Axatov Lutfillo Karamatilloevich. Falsafiy-axloqiy qarashlar zahirida tasavvufning shakllanishi.....	33
Norkulov Olim Nasimovich. Migratsiya ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida.....	35
Raxmonova Gulzoda G'aniyevna. Ma'naviyatga mafkuraviy, siyosiy-huquqiy qarashlarning tizimli ta'siri.....	39
Raximov Azizbek Bekturdiyevich. Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	41
Asatov Akmal Ismatovich. Davlat boshqaruvini mustahkamlashda jamiyat birdamligini ta'minlashning ustuvorligi.....	44
Komilov Abror Quvondikovich. Aksiologik yondashuv asosida jamiyat siyosiy madaniyatini rivojlantirishda huquqiy qadiryatlardan foydalanish.....	47

TILSHUNOSLIK

Mahmudjonova Mehribon Xurshedovna. Valentlikni aniqlashda sintaktik aloqalarning roli.....	51
Ziyadullayev Ilhom Oblakulovich. Nemis tilida bir valentli fe'l-neologizmlar va gap modellari.....	56
Mahmudova Nilufarxon Ravshanovna. Gradatsiyaning mantiqiy, psixologik va lingvistik aspektlarining o'zaro aloqadorligi va me'yor tushunchasi.....	60
Matyakubov Oybek Quralbayevich. Modallik kategoriyasining rivojlanishida til va madaniyatning roli.....	63
Qahramonova Sevara. O'zbek tilining izohli lug'atlaridagi "kamsitish" semali so'zlarning shakliy-struktur tavsifi.....	67
Shavkatov Sherzod Shavkatovich. Ingliz tilida fe'lni fe'lga bog'lovchi vosita sifatida infinitiv va gerundiyning o'rganilishi.....	70

ADABIYOTSHUNOSLIK

Namozova Manzura Uraqovna. Istiqlof davri she'riyatida umuminsoniy tuyg'ular ifodasi.....	73
Ergasheva Rayhon O'tkir qizi. Sirojiddin Sayyid she'riyatida qushlar obrazi.....	76
Xamidova Mohinaxon. Badiiy adabiyotda taom diskursi.....	79
Sabirova Nasiba Ergashevna. O'zbek folklorshunosligi va adabiyotshunosligida poetik ramzlar tadqiqi.....	85
Isaqov Zokirjon Soliyevich. Badiiy matnda badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishi.....	89

PEDAGOGIKA

Eshquvvatov Ulug'bek Abdulla o'g'li. Muhandislik kasbiga o'qitishda talabalarining kreativligini rivojlantirish.....	92
Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini sinovdan o'tkazish va baholash mezonlari.....	95
Ismoilova Shoir. Talabalarining ingliz tili fonetikasiga oid kompetensiyalarini oshirish va o'rganish.....	98
Kushbakova Vasila. Ingliz tili darslarida o'yin metodlaridan foydalanish.....	101
Xaitbayeva Nazokat Adilbek qizi. "Akademik yozuv" fanida talabalarining tadqiqotchilik faoliyatini tashkil qilish.....	104
Sultanova Nargiza. Talabalarining ingliz tilidagi yozish ko'nikmalarini oshirish usullari.....	106
Xudayberdiyev Oybek Gafurovich. Loyiha metodi asosida "tarbiya" fanini o'qitish tuzilmasi va tizimi.....	108